

THE ESSENCE OF THE TRAINING PROCESS AND ITS TASKS

Nurmatova Madina Odiljon qizi

Kokand SU V.B. Associate Professor, Lecturer.

Abstract

This article covers the essence of the teaching process, its features and its role in the development of society. The article analyzes the pedagogical foundations of interaction between teacher and pupil and covers the educational process for students, teachers and participants in the field of pedagogy. The three main tasks of education are also revealed, the essence of educational, educational and developmental functions.

Keywords: Teaching process, essence of teaching, educational task, educational task, educational task, pedagogical cooperation.

Introduction

O'QITISH JARAYONI MOHIYATI VA UNING VAZIFALARI

Nurmatova Madina Odiljon qizi

Qo'qon DU v.b. dotsent o'qituvchi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'qitish jarayonining mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikning pedagogik asoslari tahlil qilinadi va pedagogika sohasi talabalari, o'qituvchilar va ta'lim jarayoni ishtirokchilar uchun yoritilgan. Shuningdek, ta'limning uch asosiy vazifasi ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish jarayoni, ta'lim mohiyati, ta'limiy vazifa, tarbiyaviy vazifa, rivojlantiruvchi vazifa, pedagogik hamkorlik.

Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli bilim berish va ularni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasidagi islohotlar negizida o'qitish jarayonini mazmunan yangilash va uning samaradorligini oshirish masalasi yotibdi.

O'qitish jarayoni – bu shunchaki axborot uzatish emas, balki murakkab pedagogik tizimdir. O'qitish jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadli, tizimli hamda o'zaro

bog'liq faoliyati bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayondir. Uning mohiyati ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning o'zaro uyg'unligida namoyon bo'ladi. O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. O'qitish - o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O'qitish (didaktik) jarayonining mohiyatini quyidagi formula yordamida to'liq anglash mumkin: $DJ = M + A_o'f + A_o'fb$ Bu yerda:

DJ - didaktik jarayon.

M - motivatsiya.

$A_o'f$ - o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati algoritmi.

$A_o'fb$ - o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish.

O'qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O'qitish jarayonining ta'limiy vazifasi o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. O'qitish natijasi sifatida bilimlarining to'liqligi, chuqurligi, tizimlili, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O'qitishning tarbiyaviy vazifasi ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o'z ifodasini topadi. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. O'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qitish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qitishning rivojlantiruvchi vazifasi o'quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellectual sohaslarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, ob'yektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni malakasini rivojlantirishga erishiladi. Zamonaviy ta'limda o'qitishning mohiyati o'quvchiga tayyor ma'lumotni yetkazishdan ko'ra, unda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq yo'naltirilmoqda. Faqatgina ushbu vazifalar yaxlit holda bajarilgandagina, ta'lim jarayoni jamiyat talablariga javob beradigan, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qitish jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi mazmunli va tizimli pedagogik hamkorlikdir. Ushbu

jarayonning muvaffaqiyati uning uch asosiy vazifasi — ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarning qay darajada mutanosib amalga oshirilishiga bog'liq. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qitish jarayoni mohiyatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bo'lib o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. . B.Xodjayev-Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. Toshkent 2017 yil, "Sano-standart" nashriyoti
2. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh. Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU. 2012.
3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019
4. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3 (2023): 151-154.
5. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'XOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT SOXASIDAGI XIZMATLARI." *Academic research in educational sciences* 3.NUU Conference 2 (2022): 419-422.
6. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." *Молодежь и XXI век-2015*. 2015.
7. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 8-2 (2018): 58-60.
8. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" НАСТОЛЬНАЯ КНИГА С
9. ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 5-6 (2018): 53-55. Madina, N. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF CIRCULATION IN THE TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS ON THE BASIS OF INDICATIVE EDUCATIONAL MODELS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(11), 144-146.
10. Мадина, Н. (2024). Педагогические условия совершенствования системы циркуляции в подготовке будущих специалистов на основе показательных образовательных моделей. *Евразийский журнал академических исследований*, 4 (11), 144-146.
11. Nurmatova, M. O., & Abdullayeva, D. N. (2025). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA O 'QITUVCHILIK MAXORATNING TUTGAN O 'RNI VA ANAMIYATI. *Inter education & global study*, 3(5 (1)), 213-218.
12. Зияев А.Н., Хушназарова М.Н., Меликузиева М.А., Абдулладжанова С.А., Абдуллаева Д., Нурматова М. и Екубьонова Г.Х. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. *SAHIERS MAGELLANES-NS*, 6 (2), 7938-7944..
13. Gulyamova, Z. R., & Nurmatova, M. O. (2014). FEATURES OF THE FUNCTIONING AND WORD FORMATION OF SLANG UNITS. *The Way of Science*, 45.